

коррупциянинг таъсири мамлакатларнинг ўз даромади бўйича қай бир гуруҳга мансублиги жиҳатидан ҳам ажралиб туради. Тадқиқотлар кўрсатадики, “даромади даражаси паст ва юқори бўлган мамлакатлар хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда коррупцион ҳолатларни баҳолашга дифференциал тарзда ёндашувлар мавжуд. Унга кўра, коррупция иккала гуруҳда ҳам салбий таъсирга эга, даромади паст бўлган мамлакатларда коррупцияни ҳис этиш индексини ҳар бир пунктга кўтариллиши, аҳоли жон бошига ЯИМни ўсишини 0,59 фоиз пунктга пасайишига сабаб бўлади. Даромади юқори бўлган мамлакатлар гуруҳи учун коррупцияни ҳис этиш индексининг бир пунктга кўтариллиши, аҳоли жон

бошига ЯИМни ўсиши 0,91 фоиз пунктга пасайишига сабаб бўлади”[18].

Коррупцион ҳолатларни баҳолаш бўйича жаҳон тажрибасига кўра таъкидлаш мумкинки, коррупция умумий ҳолда иқтисодийга, иқтисодий ўсишга салбий таъсир этишини акс эттириб, шу билан бирга ЯИМ ўсиши билан тескари боғлиқликда амал қилади. Бундан хулоса қилиш мумкинки, қайси даражада бўлишидан қатъий назар иқтисодий ўсишни таъминлаш учун доимий равишда коррупцияга қарши тадбирларни белгилаб бориш, амалга ошириш ва унинг салбий асосларини такомиллаштириб боришни тақозо этади.

Манба ва фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Transparency International — неправительственная международная организация по борьбе с коррупцией и исследованию уровня коррупции по всему миру. Основана в 1993 году экс-директором Мирового банка Петером Айгеном в Берлине. Имеет филиалы во многих странах.
2. «Frequently asked questions about corruption», http://www.transparency.org/news_room/faq/corruption_faq
3. «African corruption «on the wane», BBC News, 10.08.2007, <http://news.bbc.co.uk/1/hi/business/6288400.stm>
4. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC), <http://www.unodc.org>
5. <https://mirec.mgimo.ru/2009/2009-01/korruptsiya-prichiny-vozniknoveniya-vliyaniya-i-metody-borby2>
6. Rohwer, Anja (2009): *Measuring Corruption: A Comparison between the Transparency International's Corruption Perceptions Index and the World Bank's Worldwide Governance Indicators*, CESifo DICE Report, ISSN 1613-6373, ifo Institut für Wirtschaftsforschung an der Universität München, München, Vol. 07, Iss. 3, pp. 42-52. <https://www.econstor.eu/handle/10419/166975>
7. *Issues Paper on Corruption and Economic Growth*. - <https://www.oecd.org/g20/topics/anti-corruption/Issue-Paper-Corruption-and-Economic-Growth.pdf>
8. Rajeev K. Goel and Michael A. Nelson, *Causes of corruption: History, geography and government*, BOFIT Discussion Papers, Helsinki, 2008
9. Мировое и национальное хозяйство. Издание МГИМО МИД России. ISSN: 2713-0983 №1(8), 2009. «Коррупция: причины возникновения, влияния и методы борьбы». - <https://mirec.mgimo.ru/2009/2009-01/korruptsiya-prichiny-vozniknoveniya-vliyaniya-i-metody-borby2>
10. <http://info.worldbank.org/governance/wgi/>
11. Daniel Kaufmann, Aart Kraay, and Massimo Mastruzzi. *Measuring Corruption: Myths and Realities*. The World Bank - <http://www1.worldbank.org/publicsector/anticorrupt/corecourse2007/Myths.pdf>
12. Lambsdorff J.G. *Causes and consequences of corruption: What do we know from a cross-section of countries?* // Susan Rose-Ackerman (Ed.) *International Handbook on the Economics of Corruption*. Edward Elgar Publishing Ltd, 2006.
13. См., например: Ширяева Я.Д. *Международный опыт оценки ненаблюдаемой экономики и незаконной деятельности*. // Вопросы статистики. 2009, №6.
14. Утверждены Постановлением Госкомстата России от 31 января 1998 года №7.
15. Смирнов Н.В. *Методы оценки коррупции и антикоррупционной политики в регионах России*. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Институт системного анализа РАН. М., 2010.
16. Daniel Kaufmann, Aart Kraay, and Massimo Mastruzzi. *Measuring Corruption: Myths and Realities*. The World Bank - <http://www1.worldbank.org/publicsector/anticorrupt/corecourse2007/Myths.pdf>
17. Rohwer, Anja (2009): *Measuring Corruption: A Comparison between the Transparency International's Corruption Perceptions Index and the World Bank's Worldwide Governance Indicators*, CESifo DICE Report, ISSN 1613-6373, ifo Institut für Wirtschaftsforschung an der Universität München, München, Vol. 07, Iss. 3, pp. 42-52. <https://www.econstor.eu/handle/10419/166975>
18. *Issues Paper on Corruption and Economic Growth*. - <https://www.oecd.org/g20/topics/anti-corruption/Issue-Paper-Corruption-and-Economic-Growth.pdf>
19. Md.Mamun Miah, Shapan Chandra Majumder. *The impact of corruption on the economic growth in Bangladesh, India and Pakistan: An ARDL approach* Article in *Independent Journal of Management & Production* · December 2021 - <https://www.researchgate.net/publication/348339078>



O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY SUG‘URTA MODELLARINI QO‘LLASHDA XORIYIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Beknazarov Zafarjon Ergashevich - Toshkent moliya instituti “Sug‘urta va pensiya ishi” kafedrasi dotsenti

https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss1/a21

Annotatsiya. Maqolada xorijiy davlatlar va O‘zbekistonning ijtimoiy sug‘urta va ijtimoiy ta‘minotni tashkil etishni tashkiliy-huquqiy asoslari ko‘rib chiqilgan. Jahonga ijtimoiy sug‘urtaning modellari va ularning xususiyatlari hamda xorij tajribasini mamlakatimizda qo‘llash imkoniyatlari o‘rganilgan. Pandemiya davrida aholini qay tarzda ijtimoiy sug‘urta orqali himoyalash tizimlari o‘rganilgan va tafkiflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy sug‘urta, ijtimoiy ta‘minot, Kontinental model, Anglosakson modeli, Skandinaviya model, pensiya sug‘urtasi, nogironlik nafaqasi, ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalar, dafn marosimi uchun nafaqa, bola tug‘ilganda beriladigan bir martalik nafaqa.

ОПЫТ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН В ПРИМЕНЕНИИ МОДЕЛЕЙ СОЦИАЛЬНОГО СТРАХОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

*Бекназаров Зафаржон Эргашевич -
Ташкентский финансовый институт,
Доцент кафедры "Страховая и пенсионная работа"*

Аннотации. В государстве рассматриваются организационно-правовые основы организации социального страхования и социальной защиты в зарубежной стране и Узбекистане. В мире изучены модели социального страхования и их особенности, такие возможности применения зарубежного опыта в нашей стране. Во время пандемии были изучены системы защиты средств социального страхования и разработки.

Ключевые слова: Социальное страхование, социальное обеспечение, континентальная модель, англосаксонская модель, скандинавская модель, пенсионное страхование, пенсия по инвалидности, несчастные случаи на производство, помощь на производство.

EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN APPLICATION OF SOCIAL SECURITY MODELS IN UZBEKISTAN

*Beknazarov Zafarzhon Ergashevich -
Tashkent Financial Institute, Associate Professor
of the Department of "Insurance and Pension Work"*

Annotation. The article examines the organizational and legal foundations of the organization of social insurance and social protection in foreign countries and Uzbekistan. Models of social insurance and their features, as well as the possibilities of applying foreign experience in our country, have been studied in the world. During the pandemic, social security protection systems were studied and definitions developed.

Keywords: Social insurance, Social security, Continental model, Anglo-Saxon model, Scandinavian model, Pension insurance, Disability pension, Work accidents, Funeral benefit, Lump-sum maternity benefit.

Kirish. Ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot masalalari har qanday davlatning ijtimoiy siyosatida eng dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, bugungi pandemiya sharoitida davlat tomonidan aholini ijtimoiy himoya qilinishi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ijtimoiy sug'urta – aholini turli xavf-xatarlardan jumladan, ishdan ketish, mehnatga mayiblanish va kasb kasalligiga chalinish, daromadni yo'qotish kabi xavf-xatarlar yig'indisidan ijtimoiy himoyalash hisoblanadi. Ijtimoiy sug'urtaning muhim jihati shundaki, u ish beruvchi va ishchilarning maqsadli badallari asosida shakllangan maxsus byudjetdan tashqari jamg'aarmalar tomonidan moliyalashtiriladi. Ijtimoiy sug'urta miqdori tengsizlik qoidasi asosida tuzilgan bo'lib, sug'urta to'lovi, mehnat ulushi va sug'urta muddati bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy sug'urta jamg'armalarining muhim jihati ish beruvchi va ishchilarning birdamlik qoidasi ularni boshqarishning o'ziga xos xususiyatini belgilab beradi. Ushbu jamg'armalar o'zini-o'zi boshqarish va notijorat xo'jalik yuritish qoidasi asosida ishlaydi.

Majburiy ijtimoiy sug'urtaga mehnat qiluvchi va uning oilalarini qarilikda, kasallik hollari, ish qobiliyatini yo'qotganda, onalik va bolalikni muhofaza qilishda moddiy ta'minlovchi davlatga kafolat tizimi sifatida qaraladi. Majburiy ijtimoiy sug'urta mablag'lari korxonalar, muassasalar, tashkilotlar yollanma ishchining maqsadli soliqlari yakka tad-

birkorlarning badallari va davlat subsidiyalari hisobidan shakllantiriladi. Insoniyat va tabiatning ajralmas birlik ekanligi bilan bir qatorda, ular o'rtasida shunday qarama-qarshilik mavjudki, u inson bilan tabiat o'rtasidagi tinimsiz kurashlarda namoyon bo'ladi. Favquloddalik va xavf-xatar insoniyat mavjudligining me'yori hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Aholini ijtimoiy sug'urta tizimi orqali kambag'allikdan chiqarish va farovon turmush tarzini amalga oshirish doimo dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, hozirgi davom etayotgan pandemiya sharoiti ijtimoiy sug'urta masalasi global muammolardan ekanligini ko'rsatib, bu bora ko'plab ilmiy va amaliy izlanishlar olib borilishi kerakligini taqozo etmoqda. Xususan:

Xorijiy mamlakatlarning yetuk olimlari Zahin Ansari, Mosab I. Tabash B, Asif Akhtar, Samar H. Khan, Ebrahim Mohammed Al-Matari[1] Xususiy bozorning nomukammalligi butun dunyo bo'ylab ijtimoiy sug'urta ko'lamini kengaytiradi. Ijtimoiy sug'urta ishlab chiqilgan heterojen xavflardan himoya qilishni ta'minlash. Farovonlik sharoitida iste'molchining ijtimoiy sug'urtaga bo'lgan talabi optimal siyosatni qamrab olish zaruratidan kelib chiqadi. Huddi shunday, davlat aralashuvi sug'urtani osonlashtiradi nomukammal axborot va ma'naviy xavf ta'sirini kamaytirish orqali bozorni shakllantiradi. G.Takacs[2] Ijtimoiy sug'urta va bemor xarajatlari-ning vaqt seriyali tahlili. Darmawan KH, S. Satibi,

S.A. Kristina[3] Ijtimoiy sug'urtasi uchun to'lovga tayyorlik va aholi orasida tug'ilgan omillar. Tobias Laun, Johanna Wallenius[4] Ijtimoiy sug'urta va pensiya: davlatlararo istiqbol. Minas Vlassis, Stefanos Mamakis, Maria Varvataki[5] Soliqlar, ijtimoiy sug'urta badallari va deklaratsiyalanmagan mehnat birlashgan oligopoliya kabi adabiyotlarda ushbu tadqiqot ishini o'rganib chiqilgan.

Ijtimoiy sug'urta tizimiga doir Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlarning bir qator iqtisodchi olimlari Galkina (2010) [6], Jilsov (2019)[7], Ivanovlar (2016) [8] o'zlarning ilmiy izlanishlari xususida avlodlar birdamligi tizimidan aralash pensiya tizimiga o'tishning nazariy jihatlarini tadqiq etilgan. Bizning mamlakatimizda ijtimoiy sug'urta tizimining ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini nazariy va amaliy jihatlarini yirik iqtisodchi-olimlarimiz B.Umurzoqov (2012)[9], A.Vaxabov (2017)[10], D.Rustamov (2018)[11], Sh.Rajabov (2018)[12] va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev asarlari, Farmonlari, Qarorlari tashkil qiladi. Muammoni kompleks o'rganish jarayonida, O'zbekiston Respublikasi moliya, iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirliklari, Statistika qo'mitasi faoliyatiga doir materillarga murojaat qilindi.

Mavzuda belgilangan vazifalarning bajarilishiga erishish uchun statistik ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlashda monografik va taqqoslash, olingan natijalarni umumlashtirish va asoslashda nazariy tahlil usullaridan foydalanildi. Ushbu metodlar maqolaning tahlil va natijalar qismida qo'llanilib, xulosa va takliflar tayyorlashimizga asos bo'ldi. Tadqiqotda foydalanilgan metodlarning natijasi alohida ijtimoiy sug'urta tizimi orqali moliyalashtirishni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Ijtimoiy sug'urta tizimi zamonaviy jamiyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri. Mamlakatlarda ijtimoiy sug'urtaning rivojlaniishi o'ziga xos tarixiy noyob yo'lni bosib o'tgan. Har bir davlat ijtimoiy siyosatini mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va iqlim xususiyatlarini hisobga olgan holda olib boradi. Xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy-himoya asosiy 3 ta model xususiyatlariga moslab qurilgan: Bismark (kontinental, konservativ), Beveridj (anglosakson, liberal) modeli va xususiy-korporativ (aralash, skandinaviya) modeli.

Kontinental model. Bismark modeli ijtimoiy sug'urta mexanizmiga asoslangan bo'lib, u mehnat qobiliyati yo'qolishi bilan sug'urtalanuvchilarga daromadlari to'liq yoki qisman qoplab (kompensatsiya) beriladi. Ijtimoiy ta'minot byudjet badallari, ishchi va ish beruvchining sug'urta badallari hisobidan moliyalashtiriladi. Germaniya, Fransiya, Avstriya kabi mamlakatlar ushbu modeldan foyda-

lanib kelishmoqda. Ijtimoiy sug'urtaning Bismark modelining afzalligi ish stajiga va daromad miqdoriga qarab ijtimoiy nafaqalarning o'sishi va bu orqali fuqarolarning mehnat faoliyati rag'batlantirilishidir. Bo'sh mablag'larni qo'shimcha ravishda ijtimoiy sug'urta jamg'armalariga jalb qilish orqali, ijtimoiy to'lovlar miqdorini ko'paytirish mumkin. Ushbu modeldan foydalanishda ijtimoiy xarajatlarni davlat tomonidan moliyalashtirishning qoldiq tamoyiliga amal qilinadi. Bismark modelining kamchiligi ishchilar soni va ijtimoiy sug'urta to'lovlari miqdoriga bog'liqligidir. Ishchilar sonining kamayishi bilan ijtimoiy to'lovlar darajasi pasayadi yoki ijtimoiy ajratmalar miqdori oshadi.

Kontinental model quyidagi uch asosiy xususiyatdan iborat hisoblanadi:

insonning kasbiy faoliyati davomiyligi va ijtimoiy ta'minot darajasi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni tavsiflaydi;

bozor va davlat nazorati ostida ijtimoiy sug'urta tamoyiliga e'tibor qaratiladi;

jamoat tashkilotlari va xayriya fondlari fuqarolarning ijtimoiy ta'minotida juda faol hisoblanadi.

Germaniya davlati kontinental modelning barcha tamoyillarini amaliyotga to'liq joriy etganligi bilan ajralib turadi. Sug'urta qonunchiligining asoschilaridan bo'lib, mamlakat hayotida muhim siyosiy rol o'ynagan kansler Otto fon Bismark hisoblanadi. U birinchi bo'lib mamlakat aholisiga ma'lum ijtimoiy kafolatlar beradigan bir qator qonunlarni qabul qildi. Ulardan asosiylari "Sanoat xodimlarining kasalligini sug'urta qilish to'g'risida"gi qonun (1884), "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish to'g'risida"gi qonun (1885) hamda "Nogironlik va qarilikni sug'urtalash to'g'risida"gi qonun (1891) [13]. Ishonch bilan aytish mumkinki, ushbu qonunlar orqali shaxsning o'z mustaqilligi, jamoatchilikning qo'llab-quvvatlanishi va hukumatning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi uchun tomon o'rtasida o'zaro manfaatli kelishuvlar yuzaga kelishiga turtki bo'lgan.

Bugungi kunda Germaniyada ijtimoiy sug'urtaning pensiya sug'urtasi, majburiy tibbiy sug'urta, ishsizlik sug'urtasi, baxtsiz hodisalardan sug'urta turlari amalda ishlamoqda. Ijtimoiy ta'minot tizimi shuningdek, pandemiya sharoitida ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga moddiy yordamlar (pul va natural), bolalarga nafaqa (bola tug'ilganda bir martalik to'lovlar, kam ta'minlangan oilalarga va ko'p bolali oilalarga dotatsiyalar), qochqinlarga yordam, ta'lim uchun nafaqalar, davolanish uchun nafaqalar, pensiya subsidiyalari, urush qurbonlariga, nogironlarga yordam, kam ta'minlangan fuqarolarga ijtimoiy yordam shaklida ajratilgan davlat mablag'larini qamrab oladi. Germaniya sug'urta tizimida birinchi o'rinda mehnatga layoqatli aholi uchun yaxshi va mos iqtisodiy sharoitlar yaratishga urg'u beradi. Ijtimoiy siyosatning ushbu shakli muvaffaqiyatli bo'ldi.

Lekin undagi muhim bir kamchilik – davlat byudjeti xarajatlarining asosiy qismi ijtimoiy himoyaga sarflanishidir. Ushbu xarajatlarni qoplash uchun ishlayotganlardan olinadigan soliqlarni doimiy ravishda oshirishga to'g'ri kelmoqda.

Soliqlarning ko'pligi tufayli odamlar ishlash uchun rag'batni yo'qotadilar. Chunki odamlarning soliqlardan ajratib qolgan mablag'i ishga yaroqsiz odam oladigan ijtimoiy himoya mablag'iga teng bo'lib qoladi. Ushbu masalani ijobiy hal qilish uchun hozirgi vaqtda siyosiy jihatdan ham bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda, ulardan asosiysi sifatida ijtimoiy yordam oluvchilarni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb qilishni tashkil etilayotganini aytib o'tish lozim.

Anglosakson modeli. Davlatning ijtimoiy ta'minlashning anglosakson (liberal) modeli yuqorida tavsiflangan kontinental modeldan sezilarli darajada farq qiladi. Ushbu model asoschisi 1941-1942 yillarda Buyuk Britaniyada ijtimoiy sug'urta islohotlari bo'yicha ishchi guruhni boshqargan ingliz iqtisodchisi Uilyam Beveridj hisoblanadi. Beveridj ijtimoiy sug'urta tizimiga badallarining yagona miqdorini va ijtimoiy ta'minotning har xil turlari uchun to'lovlarning bir xil miqdorini belgilashni taklif qilgan. Olingan badallar va to'lovlar miqdori oluvchining ijtimoiy sug'urta tizimidagi ishtiroki hamda u tomonidan o'tkazilgan badallar miqdoridan qat'i nazar, ma'lum bir guruhga mansubligi asosida belgilandi. Yashash minimumi belgilash taklif qilingan. Agar fuqaro o'zini yashash minimum bilan ta'minlay olmaydigan bo'lsa, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Beveridj modeli urushdan keyin iqtisodiy va ijtimoiy farovonlikni tiklashga, mehnat unumdorligini hamda umuman iqtisodiyotni tiklash uchun sharoit yaratishga imkon bergan. Bundan tashqari, ob'yektiv sabablarga ko'ra (homiladorlik, nogironlik va hokazo) sug'urta badallarini to'lay olmaganlar uchun ijtimoiy ta'minot olish imkoniyatini saqlab qolishga imkon bergan. Beveridj modeli dolzarbligi sababli mamlakat tashqarisida ham faol qo'llab-quvvatlandi. Bu modelning muvaffaqiyatli tarzdagi amaliyotga tatbig'ini AQSh, Fransiya, Yaponiya, Shveysariya kabi mamlakatlarida ko'rish mumkin.

Anglosakson modelining asosiy xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi:

- ijtimoiy xizmatlar "umumiylik" tamoyiliga asoslanadi va bir xil miqdordagi nafaqalar beriladi (hamma sug'urta badali to'laganlarga teng miqdordagi nafaqa beriladi);

- hukumat faqat aholi daromadlarining minimal miqdorini saqlash va zaif qatlamlar farovonligi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi, shu orqali ijtimoiy sohada minimal ishtirok etadi;

- ushbu model aniq sug'urta dasturlari uchun alohida sug'urta mukofotlarini hisobga olmaydi. ijtimoiy soliqlar yordamida daromadlar yig'iladi va

ma'lum ijtimoiy ta'minot sohasining zarur ehtiyojlariga taqsimlanadi;

- ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishning moliyaviy asosi bo'lib birinchi navbatda davlat byudjeti emas, balki xususiy sug'urta badallari hisoblanadi.

Buyuk Britaniyada zamonaviy ijtimoiy sug'urta tizimida ikkita tarmoq mavjud:

- 1) milliy ijtimoiy sug'urta, unga pensiya sug'urtasi dasturlari, nogironlarni sug'urtalash, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish, onalikni qo'llab-quvvatlash, kasallik uchun nafaqalar;

- 2) mamlakat rezidentlariga, shuningdek, Angliyada uzoq vaqt yashagan chet elliklarga tibbiy xizmat ko'rsatadigan milliy sog'liqni saqlash tizimi.

Har bir fuqaro ijtimoiy sug'urtalanish huquqiga egaligini tasdiqlovchi muhim hujjat – "Social security number"ga ega. Shuningdek, u fuqarolarning hisob kartochkasi bo'lib xizmat qiladi. Sug'urta hodisasi sodir bo'lgan paytda, nafaqa miqdori ish stajga, daromadga va hokazolarga bog'liq holda hisoblab chiqiladi. Shu bilan birga sug'urta bilan bog'liq bo'lmagan kambag'allarga, yetim va boshqa ehtiyojmandlarga davlat tomonidan to'lanadigan ijtimoiy ta'minot mablag'lari (masalan, ayrim toifalarga maktabda bepul ovqatlanish, uy-joy va boshqalar beriladi) alohida hisoblanadi.

Boquvchisini yo'qotganligi bo'yicha ijtimoiy sug'urta. Boquvchisini yo'qotish bilan bog'liq sug'urta hodisasi yuz berganda, agar vafot etgan shaxs sug'urta qilingan bo'lib, uning asosiy ish faoliyatidan kelayotgan daromadi orqali oilasi ta'minlanayotgan bo'lsa, oila asosiy daromad manbaini yo'qotgan hisoblanadi va qo'shimcha moddiy yordamga muhtoj bo'lgan taqdirda marhumning oila a'zolariga (odatda turmush o'rtog'i) nafaqa to'lanadi.

Vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik bo'yicha ijtimoiy sug'urta. Bunda ishlayotgan xodimning bajarayotgan mehnatiga bog'liq bo'lmagan ravishda vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotishi natijasida sug'urta hodisasi yuz beradi. Vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqasini olish uchun xodimning besh yillik ish staji va ish beruvchi tomonidan belgilangan sug'urta badallarining to'lovi talab qilinadi.

Ishsizlik nafaqasi bo'yicha sug'urta. Bunda sug'urta badallari yillik daromadning 6,2 foizini tashkil qiladi[16], lekin bu raqamni korektirovka qilishda shtatlar tomonidan o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Umumiy qoida bo'yicha, ular ish beruvchilar tomonidan to'lanadi. Ushbu badallarni to'lash sug'urtalangan shaxslarga ishsizlik holatida, tegishli nafaqalarni to'lashda kafolat berishga imkon beradi.

Skandinaviya modeli. Shvetsiya, Daniya, Norvegiya singari shimoliy mamlakatlarda davlat ijtimoiy siyosatining skandinaviya modelidan foydalaniladi. Bugungi kunda aynan zamonaviy, yetuk va

rivojlangan ijtimoiy tizimga ega davlat sifatida aynan skandinaviya modelidan foydalangan mamlakatlar misol qilib ko'rsatiladi. Bu model o'zida bismark va Beveridj modellarining elementlarini jamlaydi.

Skandinaviya modelining quyidagi xususiyatlari mavjud:

- ijtimoiy ehtiyojlar uchun xarajatlarni amalga oshirishda yetakchi rol mamlakat hukumatiga tegishli bo'lib, barcha ijtimoiy dasturlar davlat byudjetidan moliyalashtiriladi;

- hukumat ishsizlikka qarshi faol kurash olib boradi, uning oldini olish uchun barcha zarur choralarini ko'rmoqda;

- skandinaviya modeli aholining turli qatlamlari o'rtasida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun sharoitlarning tengligi bilan tavsiflanadi;

- mamlakat aholisi uchun turli xil hayotiy vaziyatlarda turli xil ijtimoiy kafolatlar beriladi.

Shvetsiya davlati ijtimoiy siyosatni tartibga solishning eng yorqin namunalaridan hisoblanadi.

Shvetsiya aholisining ijtimoiy ta'minoti butun mamlakat aholisini ijtimoiy himoya qilishda davlat kafolati asosida amalga oshiriladi. U soliq va transfert siyosati orqali amalga oshiriladigan aholining barcha qatlamlari daromadlarini qayta taqsimlashga qaratilgan.

Shved modelining asosiy xususiyatlari inson hayotining barcha sohalarida doimiy ijtimoiy himoya va 100 foiz bandlikka erishish, kambag'allar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning yo'qligi, yuqori siyosiy va ijtimoiy barqarorlikdir. O'tgan asrning 80-90 yillarida og'ir iqtisodiy vaziyatga qaramasdan skandinaviya modelidan foydalanayotgan hech bir davlat o'z tanlagan yo'lidan voz kechmadi. Biroq, umumiy farovonlikka erishish va yuqori darajada ta'minlangan ijtimoiy kafolatlar mavjudligi davlat byudjetidan katta xarajatlarni talab qiladi. Shuning uchun ushbu davlatlarda soliqlar yuqori foizligi bilan ajralib turadi.

Jadval

Xorijiy mamlakatlarning ijtimoiy sug'urta mexanizmi [14]

AQSh	Ijtimoiy ta'minot mamlakat yoki davlat darajasida amalga oshiriladigan ijtimoiy sug'urta dasturlari bilan ta'minlanadi. Yagona ijtimoiy ta'minot tizimi mavjud emas. Ijtimoiy sug'urta xodimlari va ish beruvchilarning soliqlari hisobiga shakllanadigan sug'urta fondlari hisobidan amalga oshiriladi.	Bola tug'ilishi va tarbiyasi
Irlandiya	Asosan yashash minimuni ta'minlashga etibor qaratiladi. Ijtimoiy sug'urta byudjeti davlat byudjetiga kiritilgan. Sug'urta hodisasi natijasida davlat fuqarolarga kafolatlangan daromad bilan ta'minlash majburiyatini oladi.	Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik
Shvetsiya	Tovon puli xarajatlarining aksariyati korxonalar tomonidan amalga oshiriladi. Mahalliy va markaziy hokimiyat organlari ijtimoiy to'lovlarni amalga oshirishda ishtirok etishadi. Sug'urtalangan shaxslarning sug'urta badallari ahamiyatsiz.	- Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik - Ishning yo'qotilishi - Bola tug'ilishi va tarbiyasi - Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar - Uy-joy uchun xarajatlar - Ta'lim olish xarajatlari va h.k.
Rossiya	Sug'urta to'lovlari (bir martalik va oylik) Rossiya Federatsiyasining Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi tomonidan amalga oshiriladi. Ishlab chiqarishda shikastlanish xolatlarida, masalan, yetkazilgan ma'naviy zarar uchun ish beruvchi tomonidan tovon puli to'lanadi.	Homiladorlik va tug'ish
Xitoy	Ijtimoiy xarajatlar davlat, korxonalar, kasaba uyushmalari, xodimlar tomonidan amalga oshiriladi.	Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar

Yuqoridagi jadval orqali bir qator xorijiy davlatlarning ijtimoiy sug'urta mexanizmlari bilan qisman tanishib chiqdik. Ko'rishimiz mumkinki, ushbu davlatlarda ham asosiy daromad manbaini yo'qotgan aholi qismiga maxsus tizimlar orqali e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida "Yangi yilda iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi - kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishdan iborat bo'ladi. Ushbu strategik maqsadlarga hamma uchun teng imkoniyat yaratadigan yuqori iqtisodiy o'sish hisobiga erishiladi" deya ta'kidlagani bejiz emas, albatta[15]. Kambag'allikni qisqartirish uch-

un amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar davomida aholining ehtiyojmand qismi manzilli qo'llab-quvvatlanadi, zaruriy ijtimoiy ta'minot bilan qamrab olinadi.

2021 yildan boshlab vaqtincha ishsizlik nafaqasi 3 barobar oshirilib va bunda eski byurokratik tartibning bekor qilinishi ijtimoiy himoyani yanada kuchaytirishga e'tibor qaratilayotganining yaqqol misollaridan biridir. Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy himoyani tashkil qilishda ijtimoiy sug'urta tizimlari muhim rollardan biri sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy sug'urta munosabatlari "O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi" hamda boshqa tegishli qonun va qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Res-

publikasida hududida barcha xodimlar davlat yo'li bilan ijtimoiy sug'urta qilinadi. Davlat ijtimoiy sug'urtasi uchun ish beruvchilar, shuningdek, sug'urta qilingan xodimlarning o'zlari badal to'laydilar. Agar ish beruvchilar tomonidan davlat ijtimoiy sug'urtasi uchun badal to'lamagan bo'lsa, sug'urta qilingan xodim davlat ijtimoiy sug'urtasi mablag'lari hisobidan ta'minlanish huquqidan mahrum bo'lmaydi.

Davlat ijtimoiy sug'urtasi hisobidan beriladigan ta'minot turlariga quyidagilar kiradi:

- vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari. Ayollar uchun bundan tashqari, homiladorlik va tug'ish nafaqalari;

- bola tug'ilganda beriladigan nafaqalar;

- davlat tomonidan beriladigan yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari;

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to'lovlar bilan ta'minlanadilar.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi ishchi xodim kasal bo'lganda, mehnatda mayib bo'lgan yoki boshqacha tarzda shikastlanganda, shu jumladan, turmushda jarohatlanganda, oilaning betob a'zosini parvarish qilganda, karantin e'lon qilinganda, sanatoriy-kurortda davolanganda va protez qilinganda to'lanadi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi mehnatda mayib bo'lgan va kasb kasalligiga chalinganda ish haqining to'liq miqdorida, boshqa hollarda esa, xodimning davlat ijtimoiy sug'urtasi badallarini to'lagan muddatiga (umumiy ish stajiga), qaramog'idagi voyaga yetmagan bolalarining soni va boshqa holatlarga qarab, ish haqining oltmish foizidan yuz foizigacha miqdorda to'lanadi. Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasining eng kam miqdori qonun hujjatlarida belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 35,2 foizidan oz bo'lmasligi va nafaqa hisoblab chiqariladigan ish haqi miqdoridan ortib ketmasligi lozim [16].

Homiladorlik va tug'ish nafaqasi mehnatga layoqatsizlik varaqasida kursatilgan davri uchun

to'liq ish haqi miqdorida to'lanadi. Bola tug'ilganda bir marta beriladigan nafaqa (suyunchi puli) kam ta'minlangan oilalar uchun BHMning ikki barobari miqdorida mahalliy byudjet tarkibidan amalga oshiriladi. Yana bir marta beriladigan xafaqalardan biri bu dafn marosimi uchun beriladigan nafaqadir. Ushbu nafaqa turi vafot etgan shaxsning ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar BHMning to'rt barobari miqdorida shaxsning yaqin qarindoshlariga dafn marosimi o'tkazilgandan so'ng to'lab beriladi. Ushbu nafaqani olti oy ichida olish huquqi saqlanib qolinadi.

Xulosa va takliflar. Ilk mustaqillik yillaridan boshlab O'zbekistonda ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot tizimi faoliyatining rivojlanish bosqichlari qonunchilik hujjatlari hamda rasmiy statistik ma'lumotlarga tayanilgan holda bir necha bosqichlarni bosib o'tdi. Aholini ish bilan bandligini oshirish borasidagi muammolarni quyidan yuqoriga qadar chuqur tahlil qilish va amaliy yechimlarini ishlab chiqish hamda amalda bajarilishini nazorat qilish lozim. Odatda yashirin iqtisodiyot ishsizlikni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda byurokratik yo'l bilan emas, balki iqtisodiy imtiyozlarni qo'llash orqali tashkil etish kerak.

Barcha ijtimoiy sug'urta modellarida va yuqorida keltirilgan barcha mamlakatlarimizda ijtimoiy nafaqalarning to'lanishi asosiy qismi daromadini yo'qotgan fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy axvolini yaxshilashga, turmush farovonligini oshirishga yo'naltirilganligini ko'rish mumkin. Lekin bunda hamma tizimlar o'z xarakterli xususiyatlariga ega. Ijtimoiy sug'urta tizimini tashkil qilayotganda mamlakatdagi mavjud iqtisodiy vaziyatni, xalqning iqtisodiy mentalitetini inobatga olish kerak. Amalda qo'llanilayotgan moliyaviy-iqtisodiy infratuzilmaning afzal tomonlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zahin Ansari, Mosab I. Tabash b, Asif Akhtar, Samar H. Khan, Ebrahim Mohammed Al-Matari. Identifying and ranking the driving forces of social insurance by analytical hierarchy process: evidence from India. *Heliyon*. journal homepage: www.heliyon.com. (ScienceDirect).
2. Takacs G. A Time Series Analysis of Social Insurance and Patient Costs of Reimbursed Medical AIDS in Hungary. *National Institute of Pharmacy and Nutrition, Budapest, Hungary*.
3. Darmawan KH, Satibi S, Kristina S.A. Willingness to pay for social health insurance and factors born among the population. www.scopus.com
4. Tobias Laun, Johanna Wallenius. Social insurance and pensions: an interstate perspective. *Review of Economic Dynamics*.
5. Minas Vlassis, Stefanos Mamakis, Maria Varvatakis. Taxes, social security contributions and undeclared labor are combined oligopolies. *Economics Letters*.
6. Galkina E.V., Jiltsov E.N., Ivanovlar A.N. Literature on the pension system.
7. Far D. Insurers and other participants in insurance activities.
8. Verden E. "Insurance cooperatives and share payments".
9. Vaxabov A.V. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Toshkent 2017.
10. Rajabov Sh. Nodavlat pensiya jamg'armalarini shakllantirish va investitsion faollikni oshirish, 140 b.
11. Rustamov D. O'zbekistonda pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalari. Monografiya. T.: Iqtisod-moliya, 200 b.
12. Umurzakov B.X. Ijtimoiy hayot va demografik bosimlar.
13. Birlashgan Millatlar Tashkilotining web sayti www.undp.com
14. Butunjahon mehnat tashkilotining web sayti www.ilo.org, ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi.
16. 2002 yil 8 mayda Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tkazilgan "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risi" da Nizomi.